Talim jarayonida faqat induktiv analiz, yani ayrim-ayrim olingan bilimlarning umumlashgan bilimlarga aylanishi yoki boshqacha qilib aytganda osondan qiyinga, oddindan murakkabga o'tishi printsipda kechishi bilan cheklanmay xususiy o'ziga xosliklarni deduktiv ravishda ajratib chiqarish jarayoni to'lig'icha h'amma parametrlari bilan birgalikda ko'rish xollari h'am uchraydi.

O'quvchilar amalga oshiradigan talim jarayonini ikki tomonlama tasavvur etish mumkin. Birinchidan, dars davomida o'qituvchi axborot vositasi sifatida reproduktiv talim shaklini amalga oshiradi. Ikkinchidan, o'quvchilarning dars paytida va darsdan tashqarida amalga oshiriladigan o'quv ishlari tarzida yuz berdi.

Talim jarayoni bevosita o'qituvchi rah'barligida amalga oshirilganida o'quvchilar o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv vazifalarini h'al etish tadbirlarini bajaradilar, o'qituvchining sistemali nazorati ostida o'quv faoliyatini vaqti-vaqti bilan to'g'rilab boradilar, o'qituvchi rah'barligida o'quv faoliyati natijalarini tah'lil etadilar.

Talim jarayoni bevosita o'qituvchining raxbarligisiz o'quvchilar tomonidan mustaqil amalga oshirilganida o'quvchilar o'zlarining o'quv faoliyatini rejalashtiradilar va vazifalarini oydinlashtiradilar, o'quv faoliyati davomida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, nazorat natijalariga asoslanib o'quv faoliyatlarini kuchlari etganicha to'g'rilaydilar, o'quv faoliyatlari natijalarini o'zlari va o'quvchilar aro taxlil etadilar.

Talim jarayonida o'qituvchining raxbarlik, talim berish faoliyati bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatlari chambarchas bog'lanib ketadi. Agar o'qituvchi o'quvchilar o'quv h'arakatlarni nazorat qilish bilan birga o'z faoliyatini xam to'g'rilab borsa, o'quvchilar h'am o'qituvchining tasiri ostida o'z h'arakatlarini to'g'rilab borishadi, o'qituvchining nazorati tasiri ostida o'quvchilar h'am bevosita o'zlarini o'zlari nazorat qila boshlaydilar. Faqat o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatlari mana shunday mushtarak, uyg'unlashtandagina talim jarayoni yakdil, yaxlit, bir butunligicha rivojlaiadi. Aksiicha agar o'qituvchi butun vujudi bilan faoliyat ko'rsatsa-yu, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtira olmasa talim jarayoninng vazifalari amalga oshmay qoladi.

O'qituvchi raxbarligida amalga oshiriladigan mustaqil ishlar davomida o'quvchilar o'quv ishlarini mustaqil bajaradilar. Bunday xollarda pedagog o'quvchilarning h'arakatlarini bsvosita yo'naltirib boradi, chunki unga kadar u o'quvchnlariing oldiga topshiriq, vazifa qo'ygai, toshinriqning faol bajarilishini rag'batlantirgan bo'lib, topshiriqning bajarilish natijalarini tah'lil etishda ishtirok etadi.

Talim jarayoiida o'qituvchi o'quvchilarnint birgalikdagi yoki o'quvchilarning aloh'ida mustaqil o'quv faoliyatlari bilish jarayonining asosini tashkil etadi. Bulardan tashqari bilimlarni o'zlashtirishning ichki jarayonlari h'am mavjuddir. IIIu nuqtai nazardan o'zlashtirish jarayonining psixologik tavsifini quyidagicha tasavvur etish mumkin:

2.2.Bilish jarayoni

| Qabul etish (eshitish) | Tushuni sh | Anglash | Umumlashtirish | Mustah'kamlas h | Qo'llash |
|-------------------------------|-------------------|----------------|-----------------------|------------------------|-----------------|
| | | | | | |

Qabul etish (eshitish, sezish) o'quvchi sezgi organlariga tasir etadigan h'odisalar va "jarayonlarning inson tafakkurida aks etishidir. Qabul etish jarayoniga ko'rish, fikr yurgizish, muloh'aza yuritish bilan birga ularning avvalgi tajribalari h'aqidagi malumotlar h'am kiradi. Inson qabul etish jarayonida o'zining avvalgi bilimlari, amaliy tajribalariga suyalnish h'olda h'odisalarning ayrim o'ziga xosliklai, belgllari, shakllari, shu bilan birga o'qituvchinig tovush asosidagi malumoti h'am qabul etiladi. Bu jarayonda pedagog faoliyati o'quvchilarda safarbarlik h'olatini yuzaga keltirish, o'quvchilar sezgi maydonlarini kengaltirish,, o'quvchllar h'ayotiy tajribasiga kengroq suyanishl, ko'rgazmali qurollardan muvofiq foydalanish, og'zaki nutqini nih'oyatda dramalashtirib, shoirona iborali so'zlar ishlatib o'ziga rom qila olishi bilan izoh'laladi. Bulardan tashqari pedagog o'quvchliar dlqqatini moh'irlik bilan qo'llab-quvvatlab turishi, yangi materialni o'zlashtirishda o'quvchilar kuch-g'ayratlarini faollashtirishlari lozim.

Qabul qilish, eshitish, sezish o'rganilayotgan manbali tushunishga o'tishi kerak. Tushunish ayrim jarayonlar, h'odisalar orasidagi bog'liqliklar, voqea va xodlsalarning

kelib chiqish sabablarini, matn mazmunining moh'iyatini ochish va h'okazolardan iborat. Izoxlanayotgan o'quv materiali tushunarli bo'lishi uchun o'qituvchi o'quvchilarni o'z fikri ortidan ergashtira olishi, aniq mantiqiy bayon etishi muh'imdir. Xususan talimni shu xususida qurish kerakki, toki o'quvchilarning o'zlari o'rganilayotgan ashyoviy dalillarni, tajribaviy malumotlarni qiyoslashga jalb etilsin, ularning ilk sabablarini izoh'lasinlar, o'zlarining bazi bir mustaqil xulosalarini chiqarsinlar.

Tushunilgan h'odisa endi atroflicha fah'mlanib anglanishi kerak. Malumotli anglash tushunishdan ko'ra ko'p qirraliroq, chuqurroq h'isoblanadi. Anglash davomida tushunilgan h'odisa yanada boyitiladi, o'zaro sababiy bog'lanishlar yanada konkretlashtiriladi, o'quvchida o'ziga ishonch yanada ortadi. Anglashning samarali amalga oshishi uchun umum o'quv ko'nikma va malakalarni, aqliy faoliyatning h'ar turli usullarini, yani taxlili, bo'laklash, qiyoslash, muammoli. talim usullaridan keng foydalanish lozim. O'quvchilar suh'batlarga, tadqiqotli namoyishlar va tajribalar o'tkazishga jalb etilishi kerak.

Bilish jarayonida umumlashtirish aloh'ida o'rni tutadi. Bilim, iqtidor va ko'nikmalar oddiy elementlar bo'lakchalaridan yig'ilib murakkab bilimlarga, murakkab ko'nikma va murakkab malakalarga aynala boshlaydi. Bunday aylanish albatta umumlashgan bilim, umumlashgan ko'nikma, umumlashgai malakalar paydo bo'lishi bilan yuz beradi. Soh'a bo'yicha umumlashgan bilimlar bo'lgusi mutaxassislarining malakali ish bajaruvlarida ko'l keladi. Shundan umumlashgan bilim, iqtidor va ko'nikmalarga politexnik bilim, iqtidor va ko'nikmalar misol bo'la oladi. Bunday umumlashgan bilim va ko'nikmalar ishlab chiqarishning umumiy asoslari, ishlab chiqarishda keng tarqalgan texnologik jarayonlar, operatsiyalar, ishlab chiqarishda keng ko'llaniladigan meh'nat usullarini qo'llash bo'yicha politexnik malakalardan iboratdir. Umumlashgan bilimlar mutaxassisga yangi soh'ani egallashda nazariy bilimlarni epchillik bilan amalda qo'llash imkonini beradi.

Umumlashtirilgan bilim, iqtidor va ko'nikmani xotirada mustaxkam saklab kolishi uchun uni butunicha yoki biron-bir bo'limini bir necha marta tasavvurdan o'tkazishi lozim. Bu esa asosiy asheviy-dalillarni yod olish yo'li bilan, o'rganilayotgan

materialiini bazi bir juda zarur tarkibiy qismlarini xotiraga keltirishi, xulosa chiqarishi yo'li bilan olingan bilimlarni maxsus ravishda mustaxkamlash uchun yo'naltirilgan yozma h'anda tajriba mashqlarini bajarish orqali amalga oshiriladi. Mustaxkamlash jarayonida qonuniyatlarni qo'llashda o'quvchilarga o'zlarining shaxsiy missollarini topish xususida topshiriqlar berilsa, mustaxkamlash o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtiradi, ularni yangi vaziyatga tatbiq etish ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

O'zlashtirilgan, umumlashirilgan bilim iqtidor va ko'nikmalar biron-bir muayyan h'ayotiy sharoitlarda qo'llanishi kerak. Amalda qo'llash tajriba ishlarini bajarish yo'li bilan, korxonadagi o'quv tsexi, maktab er uchastkasidagi meh'nat faoliyatida amalga oshirilsa o'rganilayotgan masalaning amaliy ahamiyatini ocha borib, bilimlarni ko'p darajada mustaxkamlash h'ayotiy bo'lishi taminlaydi.

Amalda yuqorida kayd qilgan o'zlashtirishning xamma tarkibiy qismlari aloh'ida h'olda uchramaydi. Masalan tushunishi, o'rganilayotgan materialni anglashdan ajratib bo'lmaydi. O'quvchi o'rganilayotgan h'odisani anglab keyin tushunishi yoki aksincha oldin tushunib keyin anglashi mumkin. O'zlashtirishning xar bir tarkibiy qismida bu jarayonning oldingi tarkibiy qismlari albatta namoyon bo'lib turadi. Xuddi shuningdek o'zlashtirishning tarkibiy qismlari; umumlashtirish, mustaxkamlash va qo'llash o'zaro bir-biri bilan sintetik ravishda chambarchas bog'liq, bunda o'zlashtirishning ayrim tarkibiy qismlarini, ularning asosiy vazifalarini bilish pedagoglar uchun o'zlashtirish jarayonini yaxshiroq boshqarish imkoniyatini yaratadi.

O'zlashtirish jarayonining ketma-ketligi dars reproduktiv tarzida, yani analiz metodi bilan o'tkazilganida namoyon bo'ladi. Amalda o'quv materialini o'zlashtirish muammoli h'ayotiy masalalarni h'al etishdan boshlanadigan h'olatlar h'am bo'lishi mumkin. O'quvchilarga muammo yoki nazariy xulosa taklif etiladi. O'quv jarayonida nazariy xulosalarni h'ayotda qo'llash, tatbiq etishdan nazariy jih'atdan tushunishga, anglash va fikr-lashga tomon boshqarib boriladi. Talim jarayoniga mana shunday deduktiv yondoshish o'qitish muammoli metod bilan o'tkazilganida samarali natijalar beradi. Albatta o'zlashtirishning qaysi ketma-ketligini tanlash talim vazifalariga, talim

mazmunining o'ziga xosliklariga, o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

O'zlashtirish jarayonining samaradorligi ko'p jih'atdan o'rganilayotgan o'quv materialini qanchalik asoslanishi, ishonchli dalillar bilan tasdiqlanishiga bog'lik. O'quv jarayonini tashkil etar ekan pedagog o'quv-chilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni oldindan ko'rsatishi, yaqin vakt mobaynida aynan kaysi kamchiliklar ustida jiddiy ishlashi lozimligini o'quvchilarga uqtirib borishi lozim. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishga safarbarligini etarli darajada taminlashi kerak. Buning uchun o'rganishning ijtimoiy ah'amiyatini tushuntirish yuzasidan choralar ko'radi. Talimniig ilmiy-texnika taraqqiyoti uchun, ishlab chikarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish uchun, meh'nat unumini oshirish uchun, jamiyatimizning ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun axamiyatini ochib beradigan ishonarli misollar tanlaydi. Ayni vaqtda pedagog o'quvchilarni o'qishning subektiv ah'amiyatini, yani ushbu fanni o'rganish uning qobiliyatlarini rivojlantirishi, kasbiy mo'ljali va o'zi qiziqqan kasbni egallashga yaqinlashib borishi uchun nimalar berishini tushunib olishga o'rgatadi. O'quvchilarga meh'nat jamoasidagi muloqotga tayyorlanish uchun ijodiy intilishlarini (yani loyخالash, ixtirochilik faoliyati va h'okozolar) qondirish uchun nimalar berishini anglashga yordam qiladi. Bularning h'ammasi maktab o'quchilarida yangi mavzu mazmunidan, uning dolzarbligi va muh'imligidan kslib chikib, mazkur mavzuni faol o'rganishga imkon beradigan turtkini topib olish ko'nikmasini shakllantiradi. Shu bilan birga, o'quv jarayoiida o'qituvchi talabchanlik va rag'batlantirishning maqsadga muvofiq nisbatini saqlab turishi kerak, chunki meyor tuyg'usiga rioya qilinmasa, birinchi h'olda dah'shatga tushish, ko'rqish, doimo jazoni kutish h'olatlari vujudga kelishi, boshka xolda esa o'qituvchi h'addan ziyod rag'batlantirganida manmanlikning rivojlanishn, xayajonlanish vujudga kelishi muh'arrardir. Bulardan tashqari o'zlashtirishning samaradorligi ko'p jih'atdan o'quvchilar h'issiyotiniig rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Quvonch, kayg'u, vaxima, h'ayratlanish, uyat, achinish, xafagarchilik, raxmdillik, norozilik, nafrat va boshqa h'issiy kechinmalarniig o'quvchida kechishi o'quv-tarbiya jarayonining borishiga bevosita tasir etadi. Agar o'quvchilar asar kah'ramonlari g'alabalari

shukuh'ini ular bilan h'ayolan birgalikda boshdan kechirsalar, judoliklar va mag'lubiyatlardan qayg'ursalar, axloqiy meyorlarimiz buzilishiga, kishilar xatti-h'arakatla-ridagi adolatsizlikka nisbatan murosasiz bo'lsalar, ularda h'issiy meh'ribonlik shunchalik ko'p shakllana boradi. Badiiy asarlarda, sher, ashulalar, dostonlardan keltirilgan misollar o'quvchilar xissiy rivojla-nishi samaradorligini belgilab beradi. O'quvchilar xissiy kechinmalarni ardoqlash, sir saqlamoklik sinfdan tashqari va darsdan tashqari muloqotlarda namoyon bo'ladigan samimiyat ularda xislat rivojlanishi uchun juda muh'imdir.

Guruh' o'quvchilariniig h'ammasi h'am bir xilda xssiy kechinmalarga berila olmaydilar. Shuning uchun h'am h'ar bir o'quvchining indivedual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda yoidoshish maqsadga mu-voflqdir. Zaif, sust o'zlashtirayotgan o'quvchllar uchun maxsus yutuqli vaziyatlar tashkil etllshi kerak. Sust o'quvchining xam yutuqlari albatta bo'ladi. Ijobiy xislatlar o'ziga xosllklarga mos vazifalarni ongli ravishda tanlash yo'li bilan ro'yobga chiqariladi.

Iqtidorli o'quvchllar bilan ishlashda xam h'issiyotning ah'amlyati katta. Iqtidorli yoshlar murakkab masalalarni echish jarayonida qiyinchiliklarni boshidan o'tkazishadi. Shu bilan birga masala echilganida cheksiz quvonch tuyg'usi, o'z-o'zidan faxrlanish h'issi paydo bo'ladi, masala echilmaganda esa qayg'u chekish h'olatlari yuz beradi. Iqtidorli o'quvchilar ko'pincha xudbinroq bo'lpb o'sishadi. Ularda o'z o'rtoqlariga nisbatan xayri-xoxlik kechinmalarini yo'lga qo'yish juda zarurdir.

Hozirda dunyo pedagogik jarayonida o'zlashtirish mustaqilligi asosiy o'rinda turadi. Amerika kollej va universitetlarida o'quvchilar shaxsiy aktivligi birinchi o'ringa qo'yiladi. Dars davomida o'quvchilar mustaqil ishlarining h'ajmi tajribalarni mustaqil ravishda o'tkazish, kuzatishlar, masalalar echishlar bilan boyitilsa, o'quvchilar h'ayotga yanada yaxshi tayyorlangan bo'ladilar. Darsda beixtiyor muammoli vaziyatlarni h'osil qilish, o'quvchilarni bu vazifalarni echishdagi aktivligini rag'batlantirish, «yaxshisini oshirib, yomonini, kamchnligini yashirish», o'quvchilarni o'quv qiyinchiliklaridan o'zlari chiqib olish imkoniyatlarini yaratib berish o'qituvchining vazifasidir.

O'zlashtirish jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun maxsus usullardan foydalanish zarur. Buning uchun tadqiqiy amaliy ishlarni bajarish, ijodiy masalalarni

echishning original variantlarini kidirib topishga xizmat etadigan mashqlar yordam beradi. Meh'nat va texnika yuzasidan mashqlar mobaynida oddiy qurilmalar va jixozlarni loyixalash ishlariga, ixtirochilik va kashfiyotchilikning mumkin bo'lgan usullariga o'quvchilarni o'rgatish zarur. Shu bilan birga o'quvchilar brigadasidagi u yoki bu ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, korxonaga va ishlab chi-karish kombinatiga sayoh'at davomida shnchilarning ixtirochilik faoliyatlarini o'rganish usullari bilan tanishishlari lozim. Ijodiy tafakkur rivojlanishining foydali vositasi - sher, h'ikoya, qo'shiq va boshqa adabiy shakldagi topshiriqlarni yozish, tasvirlash yoki musiqiy ijodiyotdan foydalanish samarali natijalar beradi.

2.3.Talim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish.

Nazorat qilishning 2 turi mavjud. Birinchidan, talim oluvchilarning o'quv faoliyatini doimiy kuzatish, ikkinchidan, talim oluvchilarning bilimlari va malakalarini tekshirish.

Nazariy talim jarayonida nazorat qilishning asosiy metodlari, talim oluvchilarning bilimlarini og'zaki h'amda yozma tekshirish, nazorat ishlari, texnik diktant o'tkazish, texnik h'ujjatlar mazmuni muh'okama qilish. Nazariy talimda talim oluvchilarning bilimlarini amaliyotda qo'llay olishini nazorat qilish, sxemalarni yig'ish, o'lchash, mexanizmlarni tuzatish, buzilish sabablarini aniqlash va boshqalar. Bu metodga yana laboratoriya – amaliy ishlar orqali tekshirishni h'am kiritish lozim.

Ishlab chiqarish talimi jarayonida talim oluvchilarning o'quv ishlab chiqarishda bajargan va bajarayotgan nazorat qilishning asosiy metodlari joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar sanaladi.

Pedagogik adabiyotlarda talim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish metodlari, turlari va shakllari to'liq ko'rsatib berilgan. Shu bois yangi turdagi nazorat turlari to'g'risidagina to'xtalib o'tamiz.

Tashh'isli nazorat turlaridan biri – test o'tkazish. Testli nazoratning asosi test h'isoblanadi, u ikki unsurdan iborat: vazifa va etalon – vazifani to'g'ri, sifatli bajarish uchun namuna, talim oluvchilar bilimlarini taqqoslash.

Nazariy talim jarayonida test 2 usulda o'tkaziladi.

Birinchisi – tashkil qiluvchi sifatida, dasturlashtirilgan talim, nazorat (dasturiy nazorat), qayta aloqa tizimi. «Talim oluvchi – texnikada dasturli talim – o’qituvchi», «talim oluvchi – dasturli talim – o’qituvchi»

Ikkinchi usul – mustaqil nazorat qilish metodi. Ishlab chiqarish talimida test o’z-o’zini mustaqil nazorat qilish metodi h’isoblanadi. Ishlab chiqarish talimi o’quv jarayonining h’ar bir bosqichda testlar o’tkazish mumkin.

2.4.Talim oluvchilarning bilim va kunlikmalarini tekshirish uchun bah’alash reyting tizimini qullash

Talim oluvchilarning bilim va ko’nikmalari ularning faoliyatlarida ko’rinadi, foydalanilgan axborotlar reproduktiv va produktiv bo’lishi mumkin. Har bir tur o’quv faoliyatda mustaqil yoki muayyan yordam bilan bajarilishi mumkin.

Reproduktiv faoliyatda aytib berish orqali o’qituvchilar tomonidan aniqlik kiritish, yo’riqnoma, malumotnoma, kitob va boshqa axborot manbalari asosida faoliyatni to’g’ri bajarilishiga yordam beradi.

Produktiv faoliyatda yordam berishning asosi – algoritmlar va faoliyat turlari, ularning vazifalar bo’yicha yangi algoritmlar olishdir. Mustaqil produktiv o’quv faoliyatida – izlanish unsurlari, o’quv ijodiyoti, mustaqil faoliyat yuritish, talim oluvchilarda yangi bilim va ko’nikmalarni subektiv shakllantirish.

Talim oluvchi qobiliyatiga ko’ra talim faoliyatini turli darajalarga jalb etilishi mumkin, ularning h’ar birini o’z maqsadlari bor. Qo’llanilishi mumkin bo’lgan 4 darajani ko’rsatish mumkin.

1. Tanib olish.
2. Tipovoy.
3. Evristik.
4. Ijodiy.

I - darajadagi testlar talim oluvchilarga obekt to’g’risida malumotlar berish h’arakatlarni bajara olishlarini tekshirish uchun mo’ljallangan. Bunday testlarga: tanib olish testlari, turli xil testlar misol bo’ladi.

II-darajadagi testlar – talim oluvchilar mustaqil bilimni aqlan qabul qilishlari va avval egallangan bilimlarni qo'llashlari uchun mo'ljallangan. Ularga – tipovoy mashq testlari, javoblarni loyih'alash testlari, tipovoy vazifa testlari.

III-darajadagi testlar – talim oluvchilar qobiliyatini evristik tipdagi produktiv h'arakat orqali aniqlash, ularga tipovoy bo'lmagan vazifa va tipovoy bo'lmagan masalalarni h'al qilish.

IV-darajadagi testlar – egallagan bilimlardan ijodiy foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, ularga – muammoli testlar kiradi.

| O'zlashtirish darajalari | O'zlashtirish darajalarining tavsifi | Íshlab chiqarish talimi |
|---------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| I reproduktiv. Mustaqil emas | Faoliyat usta-kuzatuvchi bilan birga amalga oshiriladi, o'qituvchi bergan instruktiv ko'rsatmalar, taklif, h'ujjatlar asosida yozma yo'riqnoma instruktiv texnologik kartalar, o'quv algoritmi, ishlab chiqarish yo'riqnomasi, tipovoy qoidalar. olib boriladi. | Meh'nat, ish operatsiyalari va h'arakatlari, qiyin bo'lmagan ishlarni bajarishni o'rganish, o'zlashtirish |
| II reproduktiv. Mustaqil | Tipovoy algoritmlar asosida mustaqil o'qilashtirish tashkil etiladi. (ishning texnologik ketma-ketligi, bosqichlari, unsurlari) | O'rtacha og'irlikdagi kompleks tavsifdagi ishlarni bajarish: h'arakatlar, yangi asbob va jih'ozlarni qo'llab ishlash turlari h'amda yangi texnologiyalarni o'rganish. |

| | | |
|------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| III produktiv mustaqil | Mustaqil tayyorlangan algoritmlar asosida o'zlashtirish olib boriladi. Tipovoy bo'lmagan xollarda talim oluvchilar o'zlari mustaqil xulos chiqarishadi. | Talim oluvchilarning malakasini oshirish uchun attestatsiya: kasbiy bilimi va kasbiy mah'oratining shakllanganligini tekshirish |
| IV mustaqil ijodiy | Ijodiy faoliyat jarayonida bilim va malakalaridan foydalaniladi. Talim oluvchilar mustaqil ratsionalizatorlik ishlarini olib borishadi. | |

I darajadagi test

Kasb slesar – tamirlovchi

Fan – maxsus texnologiya

Vazifa - quyidagi ishlarni bajarish uchun qanday asboblardan foydalanish kerak:

1. Teshikni parmalash.
2. Teshikka konussimon ishlov berish.
3. Teshikning yuqori qismiga vint kallagiga ishlov berish.
4. Quyidagilardagi teshiklarga ishlov berish:
 - A. Parma. B. Zenkerlash. V. Zenker. G. Razvertka.
5. Teshiklarni qayta parmlash.

To'g'ri javob etaloni: 1-a; 2-g; 3-b; 4-v; 5-g; 6-a;,v.

Operatsiyalar – 7.

II darajadagi test

Kasb – slesar – tamirlovchi

Fan - kasbiy texnologiya

Vazifa–konussimon tishli g'ildiraklarni sifatli ilashuvini aloqali dog' yo'li bilan tekshirganimizda quyidagi natijalarga erishdik:

1. Etaklanuvchi g'ildirakning tishlari ichki tomonida h'am izlar bo'lib, u faqat tishning qalin qismidadir.

2. Etaklanuvchi g'ildiraklarning tishlari ikki tomonda h'am izlar bo'lib, u faqat tishning yupqa qismidadir.

3. Tishning faqat yuqori qismida to'liq yo'l izi bor.

4. Tishning faqat quyi qismida to'liq yo'l izi bor. Sababini aniqlash.

Testlar. Nazorat dasturlari (testlar) topshiriqlarning aloh'ida turi bo'lib, unda nazariy va amaliy talim jarayonida bilimlarning o'zlashtirilishini, malaka va ko'nikmalarni shakllantirilishini guruh'lar bo'yicha tezkor nazorat qilish, ichki va tashqi qaytar aloqani o'rnatish imkoniyati tug'iladi, shu asosda o'qituvchi (usta) va talabalar talim jarayonini boshqarish funksiyasini amalga oshiradilar. V.P.Bespalko o'zining oxirgi ishlaridan birida u yoki bu materialni o'zlashtirishda bilim, malaka va ko'nikmalarga muvofiq testlar klassifikatsiyasini taklif qilgan. O'zlashtiriladigan material tah'lili asosida u to'rtta darajani ajratish imkonini bergan.

Birinchi darajali testlar - talabalar ko'nikmalarini tekshirib, ularning faqatgina berilgan ma'lumotlarni qayta namoyish etishida tayyor savol va javoblardan to'g'ri foydalanilganligi aniqlanadi. Birinchi darajali testlarga V.P.Bespalko tanib olish («to'g'ri-noto'g'ri» turidagi javobni talab qiluvchi mashqlar), farqlash (taklif etilayotgan javoblar qatoridan to'g'risini tanlash) va klassifikatsiya testlarini kiritadi. Quyida birinchi darajali testlarga namuna keltiramiz.

1-test.

Talim maqsadi: diaproektordagi kadr h'olatini va undan foydalanishning optimal sharoitlarini aniqlash.

Ekkranda obektning to'g'ri tasvirini h'osil qilish uchun diaproektordagi kadr ... bo'lishi kerak.

a) to'g'ri; b) ag'darilgan.

Diaproektor nuri kuchsiz bo'lganda xona yoritilganligi... bo'lmog'i lozim

a) maksimal; b) minimal.

Diaproektor ekranga qanchalik yaqin bo'lsa, tasvir yorqinligi shunchalik...

a) katta; b) kichik.

Diaproektor to'g'ri rostlanganda tasvirning h'ar bir elementi ... partadan ko'rinmog'i lozim.

a) birinchi; b) oxirgi.

Diaproektor ekranga qanchalik yaqin bo'lsa, undagi tasvirlar o'lchami shunchalik ...

a) katta; b) kichik.

Testni bah'olash bo'yicha ko'rsatma: to'g'ri javoblar b) punktida berilgan. Mashqni bunday tuzishning qulayligi bah'olashning soddaligidadir, chunki to'g'ri javob oldindan belgilab qo'yilgan. Bunday mashqlarni echish uchun vaqt talab qilinadi. Kamchiligi shundaki, 50 imkoniyat bilan darsni o'zlashtirmagan talaba h'am to'g'ri javob berishi mumkin. Bunday h'olatni kamaytirish maqsadida testda 10 tadan 12 tagacha bir turdagi mashqlar berilishi lozim.

2-test

Talim maqsadi: greyfer mexanizmi va tovush bloki vazifasini aniqlash.

Greyfer mexanizmining, vazifasi shundan iborat: u ...

- a) filmonusxaning film kanalidagi h'arakatini taminlaydi;
- b) proektsiyalanadigan kadr h'olatini fokal tekisligida tutib turadi;
- v) filmonusxani film kanalida uzluksiz h'arakatini taminlaydi;
- g) filmonusxaning bir tekis h'arakatini taminlaydi.

«Ukraina-5» kinoproektoru tovush bloki ... uchun mo'ljallangan

- a) optik fonogrammani o'qish;
- b) magnit fonogrammani o'qish;
- v) fonogrammani o'qish va filmonusxaning bir tekis siljishini taminlash;
- g) optik va magnit fonogrammani o'qish.

Testni bah'olash bo'yicha ko'rsatma: to'g'ri javoblar: birinchi savolda g, ikkinchi savolda v.

Namunadan ko'rinib turibdiki h'ar bir savolga 3-4 ta turda javob berish mumkin bo'lib, ulardan faqat bittasi to'g'ri. Bunda to'g'ri javobni tasodifan topish imkoniyati 25 % gacha kamayadi.

Testdagi javoblar sonining ortib borishi to'g'ri javobni tasodifan topish imkoniyatini kamaytirib boradi. Bundan tashqari tasvirlangan obekt aloh'ida qismlari /tashkil etuvchilari/ pozitsiyasini topish kerak bo'ladigan mashqlar h'am yuqorida ko'rsatilgan tipdagi testlarga kiradi. Bunday mashqlarni tuzish va tekshirish nisbatan oson.

3-test

Talim maqsadi: talabalarning h'ozirgi paytda mavjud bo'lgan proektsion apparatlar to'g'risidagi bilimlarini aniqlash:

Keltirilgan proektsion apparatlarni ko'rsatilgan qatorlardagi raqami bo'yicha guruh'larga ajrating:

- | | | | |
|--------------|---------------|----------------|------------------|
| 1. «Svet» | 5.«Ukraina» | 9. «Kvant» | 13. «Luch» |
| 2. «Kashtan» | 6. «Gorizont» | 10. «Shkolnik» | 14. «Proton» |
| 3. «RUS» | 7. «Raduga» | 11. «Svityaz» | 15. «Lektor-600» |
| 4. «LETI» | 8. «Alfa» | 12. «Volna» | 16. «Peleng» |

diaproektorlar:.....

kinoproektorlar:.....

Shu usulda 16 va 18 mm.li kinofilmlarni namoyish qilishga mo'ljallangan kinoproektorlarni taqsimlang.

16 mm.li filmlarni namoyish qiluvchi kinoproektorlar

18 mm.li filmlarni namoyish qiluvchi kinoproektorlar.....

Testni bah'olash uchun ko'rsatma: quyidagi javoblar to'g'ri h'isoblanadi:

diaproektorlar: 1, 4, 6, 8, 11, 14, 15, 16;

kinoproektorlar: 2, 3, 5, 7, 9, 10, 12, 13;

16 mm.li film uchun kinoproektorlar: 2, 5, 6, 10

18 mm.li film uchun kinoproektorlar: 3, 9, 12, 13

Ko'pchilik h'ollarda klassifikatsiyalashga oid topshiriqli testlar obektlarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan h'ollarda tuziladi. Bu topshiriq shunday tuziladiki, tushunchalar guruh'ini talaba ikki yoki undan ortiq kategoriyalarga ajratishi lozim bo'ladi. Shunday qilib, h'ar bir tushuncha uchun talaba ikki yoki undan ortiq

tushunchalar orasidan bittasini tanlaydi. Testlarni tekshirishni tezlashtirish uchun barcha obektlar son yoki h'arflar bilan belgilab olinadi.

Ikkinchi darajali testlar - talabalarda malumotlarni ko'rsatmalarsiz aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun mo'ljallangan. Shunga muvofiq V.P.Bespalko quyidagi tipdagi ikkinchi darajali testlarni ko'rsatadi: almashtirish; konstruktiv; tipovoy.

Biz o'zimiz bunga yo'l qo'yilgan xatoliklarni topish va qayta guruh'lashga oid testlarni qo'shamiz.

1-test

Talim maqsadi: talabalarning o'zlashtirilgan atamalar mazmunini bilishini aniqlash.

Algoritm bu

Testni bah'olash bo'yicha ko'rsatma: h'arakatlarni bajarish tartibi.

2-test

Talim maqsadi: talabalarning ichki teskari aloqali trenajyor tuzilishi va bloklari orasidagi asosiy aloqalarni bilishini aniqlash.

Topshiriq: ichki teskari aloqali trenajyorning strukturali sxemasini tasvirlang.

Testni bah'olash bo'yicha ko'rsatma: trenajyor strukturasi sxemasi.

3-test

Talim maqsadi: talabalarning kesish rejimlari formulalarini bilishini aniqlash.

Topshiriq: Bir o'tishda detalni yo'nishdagi kesish rejimi elementlarini aniqlang, bunda D-18 mm, A-100 mm, P-1200 ayl/min va 2 min-600 mm.

Testni bah'olash bo'yicha ko'rsatma: h' 2 mm, h' 75,5 m/min, h'0,2 mm/ob.

Talim maqsadi: Talabalarning kinematografiya jarayoni asosiy tushunchalari to'g'risidagi bilimni aniqlash.

Kino namoyish etish yuzasidan imtih'on topshirayotgan talaba quyidagicha javob berdi:

Kinematografiya birinchi marta 1905 yilda Frantsiyada aka-uka Lyumperlar tomonidan ixtiro qilingan.

Ekrandagi uzluksiz h'arakat to'g'risidagi tasavvur assotsiativ xotira va ko'rish xotirasi orqali h'osil qilinadi.

Kadr oynasida film sekundiga 24 kadr tezlikda h'arakat qiladi.

Ekrandagi tasvirni namoyish qilishda uning aniqligini taminlash uchun greyfer deb ataluvchi maxsus qurilmadan foydalaniladi.

Aloh'ida kadrlarning almashinish tezligi kinoproektsiya chastotasi deb ataladi.

Fikrlarni yana bir marta diqqat bilan o'qib, ularning qaysi birida xatoga yo'l qo'yilganligini ko'rsating.

Testni bah'olash uchun ko'rsatma: 1, 2 va 4.

Bunday tipdagi testlar mazmunini ishlab chiqishda noto'g'ri javoblar soni erkin belgilanadi.

5-test

Talim maqsadi: kinoproektorni to'g'ri ishga tushira olishni tekshirish.

Quyida keltirilgan qatorlardan «Ukraina-5» kinoproektorini ishga tushirish uchun to'g'ri bo'lgan tartibini ko'rsating.

Chap qo'l bilan motorni ishga tushirish;

Ekrandagi tasvir aniqligini o'rnatish;

Pereklyuchatelni «Proektsiya» h'olatiga o'tkazish.

Pereklyuchatelni «Elektrodivigatel» h'olatiga o'tkazish.

Qo'lni motordan sekin olish.

Kinoproektor qo'yidagi ketma-ketlikda ishga tushiriladi. Testni bah'olash uchun ko'rsatma: to'g'ri h'arakatlar quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: 1, 4, 5, 3, 2.

Bu testlar mazmuni odatda meh'nat va texnologik jarayonlarni o'rganishga Qaratilgan. Aloh'ida operatsiyalarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar odatda meyorlanib, biroq bajarilish tartibi buzib keltiriladi. Bunda vazifa qo'yilgan maqsadga erishish uchun lozim bo'lgan ketma-ketlikni aniqlashdan iborat bo'ladi.

Keltirilgan namunadan anglanadiki, faoliyatning o'zlashtirilgan algoritmini o'zgartirmasdan echish mumkin bo'lgan testlar tipovoy h'isoblanadi. Agar o'zlashtirilgan uslubni oldindan o'zgartirib topshiriqdagi vaziyatga moslash kerak bo'lsa evristik faoliyat bilan ish ko'riladi va bunda topshiriq tipovoy bo'lmaydi, yani uchinchi darajali test h'isoblanadi. Ularga misol qilib yo'l h'arakati qoidalarini modellashtiruvchi testlarni olish mumkin.

To'rtinchi darajali testlar talabaning ijodiy ko'nikmalarini, uning berilgan fan tarmog'i uchun yangi bo'lgan ma'lumotni topa bilishdagi tadqiqotchilik imkoniyatlarini aniqlaydi. Bunday testlar sifatida echish algoritmi nomalum bo'lgan muammo - topshiriqlardan foydalaniladi. Bu turdagi testlar uchun tayyor etalon mavjud bo'lmaydi, talabalarning topgan echimi sifatini faqatgina tegishli ekspertlar guruh'igina bah'olashi mumkin.

O'quv materialini turli darajada o'zlashtirilishini nazorat qilishda qo'llaniladigan testlar mazmunining tah'lili ularning birinchi uchtasiga nisbatan quyidagi talablarni shakllantiradi:

- test tarkibiga ma'lum bilimlar asosidagi, shuningdek, muammoli xarakterdagi topshiriqlarning kiritilishi;

- testlar mazmunini ishlab chiqishda bir xillikka yo'l qo'ymaslik;

- dalillarni klassifikatsiyalashga yo'naltirilgan g'oyalarga muvofiq talabalarning o'quv materialini puxta tah'lil qilishini taminlash;

- dalillarni tizimlash, o'rganilayotgan obektdagi umumiylik va aloh'idalik jarayonlar moh'iyatini aniqlashni talab qiladigan sabab va oqibat bog'liqligini ifodalovchi topshiriqlarga etiborni Qaratish;

- murakkab topshiriqlarni bir nechta oddiylariga ajratish;

- topshiriq murakkabligi uni bajarish uchun talaba amalga oshirishi lozim bo'lgan operatsiyalar soni bilan belgilanadi;

- javoblarni erkin shakllantirishni talab qiluvchi topshiriqli testlarni imkoni boricha kamroq qo'llagan maqul;

- erkin tanlanadigan javobli topshiriqlarni kompyuterlar vositasida qo'llash maqsadga muvofiq;

- «to'g'ri - noto'g'ri» javobli testlarni ishlab chiqishda to'g'ri va noto'g'ri fikrlashlar tizimidan iborat bir turdagi bir nechta topshiriqlarni kiritish;

- javoblari tanlanadigan topshiriqlardagi javoblar soni 4 tadan ortiq bo'lmasligi;

- test savollariga javoblar shakliga va h'ajmiga ko'ra, bir - biridan keskin farq qilmasligi;

- noto'g'ri javoblarni tipik xatolar asosida keltirish (ular orasida etarlicha bo'lmagan yoki ortiqcha malumotga ega bo'lgan javoblar bo'lishi mumkin);

- to'g'ri javobni topish imkoniyatini kamaytirish uchun «bilmayman» shaklidagi javobni h'am keltirish mumkin;

- agar javoblar ichida 203 ta to'g'ri javoblar berilgan h'olda to'rttadan ortiq javobli testlar tuzishga ruxsat etiladi;

- klassifikatsiyalashga oid topshiriqli testlar asosiy mazmuni obektni o'rganishga oid malumotlar asosida qurilishi mumkin;

- qayta guruh'lashga oid testlarda meh'nat va texnologik jarayonlarni o'rganishga oid malumotlar berilishi lozim;

- bir necha topshiriqli testlarda, topshiriqlar raqamlar bilan, javoblar esa h'arflar bilan belgilanadi.

Ekranli talim vositalari. Ekranli talim vositalari talabalarda sistemali, mustah'kam bilim, malaka va ko'nikmalarni nazariy va amaliy mashg'ulotlarda shakllantirishiga xizmat qiladi.

Ekran vositasida beriladigan malumotlar ilmiy asoslangan fan yangiliklariga, ishlab chiqarish texnika texnologiyasiga mos bo'lishi, o'z asosida istiqbolli texnologiya va meh'natni tashkil qilish elementlariga ega bo'lmog'i lozim.

Ekran vositalari yordamida malumotlarni uzatish deduktiv va induktiv usullarda amalga oshirilishi mumkin. Ekran vositalari talabalarni ilmiy bilish, usul, yo'llari va kasbiy mah'oratni oshirish to'g'risidagi malumotlar bilan tanishtirishiga xizmat qiladi.

Talim vositalarida mavjud bo'lgan malumotlar mazmuni, h'ajmi va qamrovi maxsus, umumtexnik, umumtalim fanlari o'quv dasturlariga, talabalar tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi h'amda amaliyotni nazariya bilan bog'lashni taminlashi lozim.

Ekranli talim vositalarini tayyorlashda ularning o'quv dasturidagi o'rnini aniq belgilab olish muh'im ah'amiyatga ega.

Nazariy va amaliy talim mashg'ulotlari uchun vazifasiga bog'liq h'olda shakli va mazmuni bo'yicha turlicha talim vositalarini yaratish maqsadga muvofiq.

Ekranli talim vositalari nafaqat o'quv mashg'ulotlari yoki ko'rgazmali vosita sifatida, balki talabalarga pedagogik tasir va ularning bilish faoliyatini boshqarish

vositasi sifatida h'am yaratiladi. U yoki bu ekran vositasining yaratilishi didaktik jih'atdan asoslangan bo'lishi h'amda nisbatan arzon va sodda, ananaviy vositalar kutilgan natijani bera olmaydigan h'ollarda qo'llaniladi. Ekran vositasini yaratishda dasturning berilgan qismini o'rganishda qo'llaniladigan boshqa vositalar bilan uning aloqasini taminlash zarur.

Ekran vositasi materiali mantiqiy ketma-ketlikda, qiziqarli va jonli shaklda berilishiga etibor qaratiladi. O'quv materialini bayon qilishni qismlarga bo'lib, oddiydan murakkabga tomon, talabaga tushunarli shaklda amalga oshirish lozim. Suratga olish, kompozitsiya va tasvir montaji o'quv materialini aniq qabul qilish va tushunishni taminlaydi.

Ekran vositasi mazmuniga o'quv mavzusiga aloqasi bo'lmagan materiallarni kiritish tavsiya etilmaydi. Proektsiya uchun mo'ljallangan kadrlar mavzuga oid bo'lmagan ortiqcha obekt va buyumlarga ega bo'lmasligi kerak. Agar kadrda o'rganilayotgan obektdan ajralmaydigan h'oldagi kadrlar mavjud bo'lsa, ularning belgilanishini tushuntirib o'tiladi. Talabalarga namoyish qilishda birorta h'am kadr tushuntirilmasdan qolmasligi aloh'ida etiborga olinadi.

Ekran talim vositalarini tanlashda yangi tushunchalar uchun asos bo'ladigan talabalardagi o'zlashtirilgan tajriba va bilimlar h'isobga olinishi zarur.

Ekran vositalarining asosiy tashkil etuvchisi tasvirlar qatori bo'lib, uni tushunish va qabul qilishda tovush qatori va subtitr muh'im rol o'ynaydi. Bu ikkala qator bir-biri bilan bog'langan bo'lishi va bir-birini to'ldiradi.

Rangli ekran vositalaridan u didaktik ah'amiyatga ega bo'lgandagina foydalaniladi. Ekran vositalari sanitariya-gigiena talab va meyorlariga javob berishi, tasvir sifati qorong'ulashtirilgan xonada uning butun guruh' yoki bosqich talabalari tomonidan aniq va to'la qabul qilishiga moslashtirilgan bo'lmog'i lozim.

Namoyish qilish uchun materiallarni tanlashda etiborni ko'proq yirik va o'rta planli tasvirlarga qaratish muh'im. Proektsiya ekranida bir vaqtda namoyish etiluvchi obektlar 5-7 tadan, bir vaqtda transformatsiyalanuvchi va ekranda h'arakatlanuvchi obektlar soni 5 tadan oshmasligi talab etiladi.

Matndagi aloh'ida so'zlar va so'zlar birikmalarini ajratib ko'rsatish maqsadida kursiv, qator tashlab yozish, yo'g'on h'arflar, yozma h'arflardan foydalanish tavsiya etiladi.

Uzatiladigan tovushlar sifati 50 dan 1500 ga oralig'ida taminlanadi. Barcha ekran vositalari eng yuqori badiiy va kinematografiya darajasida bajarilishi va bunda kino soh'asiga oid tasviriy vositalar (planlar almashtirilishi, kinokamera h'arakati, rakursni o'zgartirish, montaj, malumot o'zatishtirish maromini o'zgartirish) oqilona qo'llanish, h'ar bir ekran vositasiga oid bo'lgan annotatsiyali maxsus broshyuralar, tushuntiruv yozuvlari va uslubiy yozuvlar chop qilish maqsadga muvofiq.

Talimning mazmuni o'quv darajasi, davlat o'quv dasturlari va mazkur fan yuzasidan bo'lgan darslik bilan belgilanadi. Ayrim darslarning mazmuni, mundarijasi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifalarni h'isobga olgan h'olda konkretlashtiriladi. Fanning mazmunida o'quvchilarning qiziqishlari «tayyorgarliklarining darajasi», ishlab chikarish va maktabni qurshab turgan ijtimoiy muh'itning o'ziga xosliklarini aks ettirish zaruriyati turiladi. Nazorat tarkibiy qismi bir vaqtning o'zida talimning qo'yilgan vazifalarini o'qituvchi tomonidan h'al etishning borishi va o'qitilayotganlarning olingan javoblarining to'g'riligi, o'quv operatsiyalari bajarilishining to'g'riligini o'z-o'zini nazorat etish yuzasidan nazoratning amalga oshirilishini nazarda tutadi. Nazorat og'zaki, yozma, amaliy mashg'ulotlar va boshqa amaliy ishlar yordamida imtih'onlar, sinovlar, so'rovlar, savol-javoblar o'tkazilishi orqali amalga oshiriladi. O'z-o'zini nazorat etish esa, o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish darajasini o'z-o'zlarida tekshirish ko'rini-shida amalga oshiriladi. Mashqlar, topshiriqlarni bajarilishining to'g'riligini teskari yo'li bilan, masalalarda olingan javoblarning h'ayotiy voqelikka muvofiqligini bah'olash yordamida nazoratdan o'tkazilishi amalga oshiriladi.

Nazorat va o'z-o'zini nazorat etish o'quv jarayonida teskari aloqaning amal qilinishini taminlaydi - o'qituvchi tomonidan oddiy kamchiliklar, talimning vazifalarini bosqichma-bosqich h'al etishning sifati, qiyinchiliklarning darajasi h'aqida malumot olishini taminlaydi. Teskari aloqa o'quv jarayonini to'g'rilash, talimning vositalari, shakllari va metodlariga o'zgarishlar kiritish, ularni mazkur vaziyat uchun muvofiq

h'olga keltirish zarurligini yuzaga keltiradi. Jarayonni to'g'rilash, sozlash faqatgina o'qituvchi tomonidan emas, balki o'quvchilarning o'zlari tomonidan o'z xatti-harakatlarini to'g'rilash, xatolar ustida ishlash, qiyinchilik tug'diradigan savollarni takrorlash yo'li bilan h'am amalga oshiriladi.

